

TOG'AY MURODNING "YULDUZLAR MANGU YONADI" QISSASIDA KO'CHMA MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI

Rajabova Bahora To'ychi qizi,
Samarqand davlat universiteti magistranti
rajabovabahora529@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asarida qo'llanilgan ko'chma ma'noli leksik birliklar, ularning asarda tutgan o'rni, ijodkorgagina xos bo'lgan birliklarning g'oyaviy estetik vazifalari haqida so'z yuritilgan va misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Pragmatik ma'no, metafora, metonimiya, sinekdoxa.

TOGAY MURAD'IN "YULDUZLAR MANGU YONADI" HIKÂYESİNDE AKTARILABİLİR ANLAMLI SÖZCÜKSEL BİRİMLERİN KULLANIMI

Rajabova Bahora Toychi kızı,
Semerkand Devlet Üniversitesi'nde yüksek lisans öğrencisi

Özet. Makalede Togay Murod'un "Yulduzlar mangu yonadi" adlı eserinde kullanılan taşınabilir anlam taşıyan sözcük birimleri, eserdeki rolleri ve yazara özgü birimlerin ideolojik estetik çalışmaları ele alınmakta ve örnekler üzerinden analiz edilmektedir.

Anahtar kelimeler. Pragmatik anlam, metafor, metonimi, sinekdok.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ПЕРЕНОСНЫМ ЗНАЧЕНИЕМ В РАССКАЗЕ ТОГАЯ МУРАД «ЮЛДУЗЛАР МАНГУ ЁНАДИ»

Раджабова Бахора Туйчи кызы,
магистрантка Самаркандского государственного университета

Аннотация. В статье рассматриваются лексические единицы с переносным значением, используемые в произведении Тогая Мурода "Yulduzlar mangu yonadi", их роль в произведении, а также идейно-эстетические особенности произведений единиц, присущие только автору, и анализируются на примерах.

Ключевые слова. Прагматическое значение, метафора, метонимия, синекдоха.

THE USE OF LEXICAL UNITS WITH TRANSLATIONAL MEANING IN TOGAY MURAD'S STORY "YULDUZLAR MANGU YONADI"

Rajabova Bahora Tuychi kizi,
master's student of Samarkand state university

Abstract. The article discusses the lexical units with a portable meaning used in Togay Murod's work "Yulduzlar mangu yonadi", their role in the work, and the ideological aesthetic functions of the units that are unique to the author, and analyzes them based on examples.

Keywords. Pragmatic meaning, metaphor, metonymy, synecdoche.

Inson kognitiv olamidan, pragmatik maqsadidan kelib chiqib til birliklaridan foydalanishi XXI asrga kelib jahon tilshunosligining diqqat markaziga aylandi. Bundan kelib chiqib tilshunoslikda leksik birliklarni matndan tashqarida o'rganish bilan birga kontekstda o'rganish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Leksik birliklarning ko'p ma'no ifodalashi umumiy tilshunoslikda polisemiya termini bilan izohlanadi. Bir ma'noni anglatuvchi so'zlar vaqt o'tib ko'p ma'noli so'zga

aylanib ko'chma ma'nolarni yuzaga chiqarishi mumkin. Nutq tarkibida ko'chma ma'noli birliklardan foydalanish nutqning ifodaliligini ta'minlaydi. Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma'nolardan tarkib topishi, ularning o'zaro bog'liq bo'lishi, ma'nolarning ayni so'zning o'ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan ajralib turadi [1, 47 b.]. So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi to'g'risida juda ko'p olimlar, jumladan, proff. M.Mirtojiyev, I.Shukurov, shuningdek, prof Sh.Rahmatullayev chuqur ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Haqiqiy yozuvchi so'zi orqali asariga jon bag'ishlaydi. Shu bilan birga tanlangan har bir leksik birlik faqat fikr aytish, qahramon holatini ifodalash vositasi bo'lib qolmay, xalqning yashash tarzi, tili, madaniyatini ham ifodalaydi. O'zbek adabiyoti vakillari orasida Tog'ay Murod o'zining mazmundor roman va qissalari bilan kitobxonlar qalbidan joy olgan yozuvchilardan biri hisoblanadi. Yozuvchi "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida Surxon vohasiga xos uslub, ko'chma ma'noga oid leksik birliklardan unumli foydalangan bo'lib, bu asarning nafaqat badiiy qiymatini, balki o'zbek tili leksik qatlamining qanchalar boy ekanligini yaqqol ko'rsata oladi.

Asar tarkibidagi leksik birliklarga e'tibor qaratsak, -Shu Boboqul bilan Mamat polvon juda ham lanj ekan, nima dedingiz, Bo'ri polvon? -Mag'zava, lanj ham gapni mag'zava [2, 38b.]! Mag'zava leksik birligi ko'chma ma'noda salbiy bo'yoqqa ega bo'lib, izohli lug'atlarda lanj, ezma,shalviragan kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu o'rinda esa "undan besh battar, bo'sh-bayov" ma'nosida qo'llangan. Yozuvchi kurashchilarning harakatlariga berilgan tarifni birgina mag'zava so'zi orqali ifodalay olgani so'z qo'llash mahoratining kuchli ekanligining dalilidir.

U-u, ola jelak, undan ko'ra bo'yingga to'rva osib, tilanchilik qil [2, 39b.]! Yuqoridagi jelak birligi izohli lug'atda yengsiz, yoqasiz nimcha, ust kiyim ma'nosini anglatib, matn tarkibida o'zaro til biriktirib olgan ikkita polvonga nisbatan qo'llangan. Fikrimcha, yozuvchi bu fitnachi polvonlarga nisbatan jelak birligini qo'llash orqali o'ziga xos pragmatik maqsadni amalga oshirgan. Ma'lumki, kurashda yoqasidan, yengidan ushlab hujum qilish mumkin. Polvonlar esa hech qachon bu kiyimni kiyib kurasha olmaydilar. Bu ikki polvonning niyati halol kurash tushish emas, sovrinni olib ikkiga bo'lish bo'lgan. Shuning uchun polvonlar jelak deb atalmoqda. Bu kabi individual leksikani ayrim yozuvchilardagina uchratish mumkin. Asar matnida Tog'ay Murodgagina xos ko'chma ma'noli birliklar yetarlicha uchraydi. Masalan, Abil tentak lalmi-lalmi dag'dag'alari o'tmaganini bildi [2, 71b.]. Aslida lalmi leksik birligi suvi qochgan, quruq yer ma'nosini anglatib, bu o'rinda belgi o'xshashligi asosida insonning xususiyati "quruq kekkeygan" ma'nosida qo'llangan. Bu kabi ma'no ko'chish yozuvchining "Ot kishnagan oqshom" asarida "lalmi do'q urdi" shaklida uchraydi. Otaginam, men endi davralarni mag'lub bo'lib tark etamanmi-a? Kelib-kelib, Ismoil degan bir yapaloq boladan-a [2, 79b.]? Izohli lug'atda yapaloq so'zi "yalpaygan, yassi, yalpoq" ma'nolarida bo'lib ko'chma ma'noda insonning yuzi, burniga nisbatan qo'llaniladi. Diqqat qaratilsa, yetti yoshdan yetmish yoshgacha barchani "polvon" deb gapiradigan Bo'ri polvon o'z raqibini "bola" deb aytmoqda. Bo'ri polvonning psixologik holatidan kelib chiqib, matn tarkibida yapaloq so'zi "yoshi va jussasi kichik" ma'nosida ifodalangan, deya olamiz.

Jayraxonadan qochgan [2, 72b.]. Bu o'rinda makon bilan aloqador ma'no ko'chgan bo'lib, Surxandaryodagi ruhiy kasallarni davolovchi shifoxona haqida fikr yuritilgan. Shunda sho'rchiliklar oqsoqoli o'rnidan turdi, so'zni qalin-qalin qilib aytdi [2, 117b.]. Yozuvchi hammaga tushunarli qilib, uzil-kesil, hech kim inkor qila olmaydigan qilib birliklari o'rnida qalin-qalin metafora ma'no ko'chish usulidan foydalangan. Bo'ri polvon Shukurni silab suydi. Chuchuk-chuchuk so'zlar aytdi [2, 18b.]. Chuchuk so'zi ma'za-tam sifati hisoblanib gap tarkibida xususiyat sifati bo'lib belgi o'xshashligi asosida ma'nosi ko'chgan. Qora choponi o'ngirlarini qayirib, belbog'iga qistirdi [2, 14b.]. O'ngir leksikasi asl ma'nosida tog'ning o'yiqlik yerlarini anglatib, jumla tarkibida o'rin-joy o'xshashligi asosida metaforani yuzaga chiqargan. Osho'choqlardan samoga qop-qora tutun o'rladi [2, 10b.]. Jumlada harakat o'xshashligi orqali ma'no ko'chishi yuzaga kelgan bo'lib, o'rlash harakati jonli mavjudotlarga xos bo'lgan yuqorilash, tepaga harakat qilishni anglatadi. Asar tarkibida bu kabi metaforik ma'no ko'chishlarni yetarlicha uchratish mumkin. Oltin boshhoqlar to'lg'ondi [2, 31b.]. Osmonda oy balqidi [2, 33b.]. Polvonlar og'zidan chiqmish bug' quyuqdan

quyuq bo'ldi [2,38]. Bo'ri polvon yelkasi yerga tekkani elga yoyildi [2, 69b.]. Yuqorida keltirilgan to'lg'onmoq, balqimoq, quyuq bo'lmoq, yoyilmoq leksik birliklar shular jumlasidandir.

Asar tarkibida "bosh" so'zi bilan bog'liq polisemantik birliklarni ham uchratamiz: ko'cha boshi [2, 9b.], ro'molli boshlar [2, 2b.], o'zing bosh bo'l [2, 21b.]. Ularda sinekdoxa, metaforaning o'rin-joy, harakat o'xshashligi asosida ko'chgan ma'nolar yuzaga kelgan. Asarda bu kabi ma'nolar orqali o'zbek xalqiga xos mentalitet yaqqol namoyon bo'lgan. Jumladan, yozuvchi ayollarga nisbatan "suzuk ko'zlar", " kamon qoshlar" kabi ohangdor so'zlardan foydalansa ham xato hisoblanmas edi. Lekin Bo'ri polvonday xalqning ulug' polvoni obro'siga biroz putur yetgandek bo'lar edi. Matn tarkibida bir so'zga turli ma'nolarni kerakli o'rinlarda bera olish faqat asl so'z ustasiga xos.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, o'zbek tilida ko'chma ma'noli leksik birliklardan foydalanish, ularni yaratish orqali milliy tilning jozibasini oshirish mumkin. Tog'ay Murod ham ko'p ma'noli so'zlardan unumli foydalanib, shu bilan birga yangi ma'no qirralarini ham ochib bera oluvchi ijodkorlar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975. – B 47.
2. Murod T. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent: Nurafshon-kitob ta'minot, 2022. –117b.